FRAZEOLOGIYADA INSON OBRAZI TUSHUNCHALARINING LINGVOKULTUROLOGIK XUSUSIYATLARI

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti Markaziy

Osiyo xalqlari tillari va madaniyati

instituti 1-bosqich magistranti

Normurodova Gulsevar

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek tilshunosligida frazeologik birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari, xususan, ularda inson obrazining ifodalanishi va milliy-madaniy kodlarning aks etishi masalalari tadqiq qilingan. Tadqiqot jarayonida insonning tashqi qiyofasi, xarakter-xususiyati hamda intellektual salohiyatini ochib beruvchi frazeologizmlar tahlilga tortilib, ularning semantik tuzilishi va konseptual asoslari ochib berilgan. Shuningdek, mazkur birliklar orqali xalqning axloqiy mezonlari, dunyoqarashi va milliy mentaliteti o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik yoritilgan.

Kalit so‘zlar: frazeologoya, lingvokulturologiya, inson obrazi, madaniy kod, konsept, semantika, milliy-madaniy xususiyatlar.

Abstract: This article explores the linguocultural characteristics of phraseological units in Uzbek linguistics, specifically focusing on the expression of the human image and the reflection of national-cultural codes. During the research, phraseological units revealing the human appearance, character traits, and intellectual potential are analyzed, uncovering their semantic structure and conceptual foundations. Furthermore, the intrinsic relationship between the moral criteria, worldview, and national mentality of the people through these linguistic units is elucidated.

Keywords: phraseology, linguoculturology, human image, cultural code, concept, semantics, national-cultural characteristics.

Kirish.

Til va madaniyatning o‘zaro uzviy aloqadorligi har bir etnosning dunyoqarashi, urf-odat va an’analari, qadriyatlari hamda tarixiy tajribasining til vositasida namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Bu jihatdan, frazeologik birliklar o‘ziga xos ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi. Sababi, ular an’anaviy so‘z birikmalaridan farqli o‘laroq, xalqning ko‘p asrlik turmush tajribasi, estetik tafakkuri va milliy o‘ziga xosligini o‘zida mujassam etadi. Milliy frazeologiyamizning izchil ilmiy va nazariy bazasini yaratishda Sh.Rahmatullayevning xizmatlari beqiyos. Olimning «O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati» (1978), «O‘zbek tilining qisqacha frazeologik lug‘ati» (1964), «O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari» (1966), «Hozirgi zamon o‘zbek tili» (1957) kabi fundamental asarlari va fe’l frazeologizmlariga bag‘ishlangan monografiyalari sohaga tamal toshini qo‘ydi.

Mavzuning dolzarbligi. Inson obrazini ifodalovchi frazeologizmlar til leksikasining eng boy qatlamini tashkil etib, nutqning ta’sir kuchini, emotsional-ekspressivligini va obrazliligini ta’minlaydi. Har qanday frazeologik birlik tagida ma’lum bir lingvomadaniy kod, tarixiy voqelik yoki xalqning ma’naviy-axloqiy merosi mujassamlashgan bo‘ladi. Shu boisdan ham, inson obrazini ifodalovchi frazeologizmlarni lingvomadaniy yondashuv asosida tadqiq etish bugungi zamonaviy tilshunoslikning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sanaladi.

Tadqiqotning maqsadini o‘zbek tilidagi inson obrazini ifodalovchi frazeologizmlarning ma’no xususiyatlari va ular vositasida namoyon bo‘ladigan madaniy kodlarni o‘rganish tashkil etadi.

Asosiy qism.

Frazeologiya — (yun. phrasis - «ifoda, nutq figurasi» va logos - «ta’lim») XX asrning 50-yillarida leksikologiya tarkibidan ajralib chiqqan mustaqil tilshunoslik sohasi bo‘lib, tildagi barqaror, obrazli va yaxlit ma’no anglatuvchi so‘z birikmalarini — frazeologizmlarni o‘rganadi. Frazeologizm (frazeologik birlik yoki frazema) ikki va undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’noviy jihatdan o‘zaro bog‘langan, yaxlit holda ko‘chma

ma’no ifodalovchi turg‘un birikmalardir. Ular tuzilishiga ko‘ra so‘z birikmasi yoki gapga teng kelishi mumkin. Frazeologizmlar tilda avvaldan mavjud bo‘lgan tayyor birlik bo‘lganligi sababli ularning tarkibidagi so‘zlarni o‘zgartirish yoki tushirib qoldirish mumkin emas. Masalan, kapalagi uchmoq, og‘zi qulog‘ida, qo‘lini yuvib qo‘ltig‘iga urmoq, yuragi yorilmoq, ko‘ngliga qil sig‘maydi kabi iboralar shular jumlasidandir.

Frazeologiyaning lingvokulturologiya bilan bog‘liqligi. Mashhur rus tilshunosi B.A. Larinning ta’kidlashicha, «frazeologizmlar har doim xalq dunyoqarashi, jamiyat tuzilishi va o‘z davrining mafkurasini bilvosita aks ettiradi». Frazeologizmlarning semantikasida xalq madaniyati rivojining uzoq jarayoni aks etadi. Har bir tilning frazeologizmlarida xalq hayotiga mansub ijtimoiy-tarixiy voqea-hodisalar, axloqiy va ma’naviy-madaniy me’yorlar, diniy tasavvurlar, milliy an’ana va urf-odatlar, madaniy stereotiplar va arxetiplar o‘z aksini topgan bo‘lib, ular avloddan-avlodga uzatiladi. F.I. Buslayevga ko‘ra, frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va hayotiy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa, hikmatli ifodalardir. Ular millatning o‘ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir.[1,90]

Frazeologizmlarda inson obrazi. Frazeologizmlarda inson obrazi xalqning kishilarning xulq-atvori va ruhiy holatiga bo‘lgan munosabatini aks ettirib, muayyan millatning madaniy qarashlari va qadriyatlarini namoyon etadi. Masalan, ko‘ngli ochiq, tili uzun, bag‘ri keng kabi frazeologizmlar insonning shaxsiy xususiyatlarini obrazli ifodalash bilan birga, xalqning inson haqidagi milliy-madaniy tasavvurlarini ham aks ettiradi. Shu jihatdan frazeologizmlarni lingvokulturologik aspektda o‘rganish orqali inson obrazining til va madaniyat bilan bog‘liq xususiyatlarini ochib berish, shuningdek, xalqning axloqiy mezonlari hamda shaxsga munosabatini aniqlash mumkin. Inson obrazini aks ettirgan frazeologizmlar asosan quyidagi jihatlardan tahlil qilinadi:

1. **Tashqi ko‘rinish jihatidan:** *bir qultum suv bilan yutguday/ oy desa, oy, kun desa, kun/ ko‘zga yaqin—* nihoyatda go‘zal qiz yoki ayol, *turqi suvuq/ so‘xtasi sovuq/ afti sovuq*

— ko‘rimsiz inson, *eti borib suyagiga yopishgan* — judayam ozg‘in, *yuzidan nur yog‘iladi, farishtasi bor* — yoqimli inson ma’nolarida qo‘llaniladi.

2. **Xarakter - xususiyat jihatidan:** *baland tovoqdan osh yeb o‘rgangan* — dabdabali, hashamatli hayotda yashaydigan, doimiy katta gapiradigan inson, *qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan* — yuvosh, *tepsa tebranmas/ dunyoni suv bossa to‘pig‘iga chiqmaydi/ do‘ppisi yarimta — beparvo inson, Bedananing uyi yo‘q, qayerga borsa — bitbildiq* — betayin, *Dali-g‘uli/ shaldir-shuldur/ bir qop yong‘oq, bir gapirib o‘n kuladi — xushchaqchaq inson ma’nolarini ifodalaydi.*

3. **Salohiyat jihatidan:** *Aflotun miya* iborasi dono, donishmand inson, *alifni tayoq deydi iborasi esa* savodsiz inson mazmunini beradi.

Shu bilan birga, inson obrazini ifodalovchi frazeologik birliklar muayyan xalqning milliy-madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi madaniy kodlarni ham saqlaydi. Madaniy kod — muayyan shaklda kodlangan madaniy axborot; olam manzarasidagi naturfaktlar (q.), artefaktlar (q.) hamda insonning ichki ruhiy olamini anglatuvchi tushunchalarni kodlangan tarzda ifodalovchi moddiy yoki ideal belgilar tizimi... Madaniy kodlar lingvomadaniyat vakillari ongidagi muayyan tushunchaga bog‘liq bo‘lgan obrazlarni belgilab beradi, shu sababli ma’lum bir madaniyatga xos obrazning mazmunini tushunish uchun uning kodini anglash zarur bo‘ladi.[2,60] Masalan, *beti qalin, beti yo‘q, beti qattiq* iboralari «bet» konsepti orqali o‘zida o‘zbek madaniyatiga xos andisha va hayo madaniy kodini saqlaydi. Xuddi shunday, *qo‘li egri, ko‘ngli egri* iboralari esa qing‘irlik madaniy kodini, *qovog‘idan qor yog‘iladi, qovog‘i bir tutam, qovog‘i ochilmaydi* kabi frazeologik birliklar esa «qovoq» konsepti orqali kayfiyat madaniy kodini saqlaydi *(birovning qosh-qovog‘iga qarab yashamoq, qovog‘i ochiq).* Shuningdek, o‘zbek lingvomadaniyatida «ko‘z» konsepti o‘zida nazar, e’tibor madaniy kodini saqlaydi: *ko‘zi bor, ko‘z tegdi, ko‘zga yaqin, ko‘zga ko‘ringan.* Qadimgi rus lingvomadaniyatida ham shunga o‘xshash holatni kuzatishimiz mumkin. Qadimdan yomon ko‘zdan saqlanish uchun qimmatbaho metall va toshlardan ko‘z shaklidagi tumorlar tayyorlangan. Bu an’ana ko‘z bilan bog‘liq ayrim

frazeologizmlarda ham aks etgan.[3,104] Bular: *глаз-алмаз, беречь как глаз, возьми глаза в руки, вооружённым глазом.*

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy va lingvokulturologik tahlil metodlaridan foydalanildi. Tavsifiy metod yordamida inson obrazini ifodalovchi frazeologik birliklarning semantik xususiyatlari yoritildi. Lingvokulturologik tahlil orqali frazeologizmlar tarkibidagi obrazlar va tayanch konseptlarning milliy-madaniy mazmuni ochib berildi. Qiyosiy tahlil orqali esa o‘zbek va rus tilidagi ba'zi iboralarning milliy-madaniy xususiyatlari qiyoslandi va qarama-qarshi ma’noli frazeologik birliklarning inson xususiyatlarini ifodalashdagi semantik va baholash jihatlari o‘zaro solishtirildi.

Natijalar. Tahlillar natijasida inson obrazini ifodalovchi frazeologik birliklar o‘zbek tilida shaxsning tashqi ko‘rinishi, xarakter xususiyatlari va salohiyatini obrazli ifodalash bilan birga, unga nisbatan shakllangan milliy-madaniy munosabatlarni ham aks ettirishi aniqlandi va quyida jadval asosida ko‘rsatildi:

SEMANTIKASI	IBORALAR	ASOSIY KONSEPT	MADANIY KOD	ANTONIMI	ASOSIY KONSEPT	MADANIY KOD
Mehribon	Oq ko‘ngil, alchoq ko‘ngulli	Ko‘ngil	Insonning ma’naviy markazi	Bag‘ri tosh	Tosh	qattiqlik, mehrsizlik
Ko‘ngilchan	Ko‘ngli bo‘sh, yuragi bo‘sh	Ko‘ngil	ta’sirchanlik	Diydasi qat-tiq, ko‘ngli qattiq	Diyda/ ko‘ngil	ta’sirchan-lik
Badavlat	Beli baquvvat	Bel	tayanch	Qo‘li kalta	qo‘l	imkoniyat
Ko‘p farzandli	Jo‘jabirday jon	Jo‘ja	ko‘plik	Tirnoqqa zor	Tirnoq	farzand (sinekdoxa)

Manman, kekkaygan	Burni ko‘tarilgan, burnidan pastni ko‘r-maydigan, dimog‘i baland	Burun/ Dimog‘	kibr-u havo, manmanlik va yuqoridan qarash kodi	Yer yuzida yurgan	Yer	pastda turuvchi, xokisorlik
Pishiq, puxta	Pixini yorgan	Pix	tajriba	Og‘zidagi oshini oldiradi	Osh	nasiba
Saxiy	Qo‘li ochiq	Qo‘l	saxovat	Bir tiyin ustida ming yumalaydi	Tiyin	eng qiymati past pul
Ko‘ngil og‘ritishdan qo‘rquvchi	Kichik ko‘ngil	Kichiklik	kamtarlik, andisha	Betga chopar	Bet	andisha
Omadli	Toleyi baland, Oshig‘i olchi	Tole	Omad	Baxti qaro, sho‘r peshona	Qora	yomonlik, kulfat
Nihoyatda halol, omonatdor	Buzoqning haqi bor deb sigirning sutini ichmaydi	Sut	poklik va halol rizq	Qo‘li egri	Egri	qing‘irlik
Juda ozg‘in	Bir teri, bir suyak Eti borib suyagiga yopishgan,	Suyak	nihoyatda ozg‘inlik ma’nosini tashiydi	Bir ko‘ylak et	Et	bo‘liqlik

	qulog‘idan kun ko‘rinadi					
Chiroyli, go‘zal	Oy desa, oyday	Oy	go‘zallik	Turqi sovuq	Sovuq/ turq	Salbiy mazmun
Aqlli, dono	Aqli raso, aflotun miya, O‘nni o‘ylab, birni so‘zlaydigan	Aql/Aflotun	Donolik	Alifni tayoq deydi, alifni ham bilmaydi, aqli kalta	Alif	Savod

Xulosa. Frazeologik birliklar tilning obrazlilik imkoniyatlarini namoyon etish bilan birga, xalqning milliy-madaniy tajribasi, qadriyatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim lingvistik vositalar hisoblanadi. Ayniqsa, inson obrazini ifodalovchi frazeologizmlar orqali shaxsning tashqi ko‘rinishi, xarakter-xususiyatlari va salohiyatiga nisbatan shakllangan milliy tasavvurlar hamda baholash mezonlari namoyon bo‘ladi.

Frazeologizmlarning lingvokulturologik xususiyatlarini o‘rganish ularning mazmunida mujassamlashgan madaniy kodlarni aniqlash, obrazli ifodalarning milliy-madaniy asoslarini anglash imkonini beradi. Bunda frazeologik birliklar tarkibidagi so‘zlar nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki muayyan madaniy tasavvurlarni ifodalashdagi ishtiroki bilan ham ahamiyatlidir. Shu jihatdan frazeologizmlarda qo‘llanadigan tana a’zolari nomlari va boshqa obrazli komponentlar insonning axloqiy sifatlari, ruhiy holati hamda xulq-atvorini ifodalashda o‘ziga xos semantik vazifa bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent: G‘afur G‘ulom, 2022.

2. Rahmatullayev Sh. O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi, 1978. – 408 b.

3. Xudoyberganova D. Antropotsentrik tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. Toshkent: “Tubo nashr“, 2022. – 120 bet.
4. Usmonova Sh. Lingvokulturologiya: darslik. — Toshkent, 2019. — 245 b.

5. Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. пособие для студ. высш. учеб, заведений. — М.: Издательский центр «Академия», 2001. — 208с.
6. Haydarova S.M. Madaniy kod va realiyalar: qiyosiy lingvistik tahlil // Qo‘qon DPI. Ilmiy xabarlar. – 2026. – T. 8, № 05. – B. 820–827.

7. Ismatullayeva N.R. Madaniy kod tushunchasi va uning nazariy asoslari // Results of National Scientific Research International Journal. – 2025. – Vol. 4, Issue 8. – B. 59–68.

8. Jalolova Shakhnoza Mukhammedjanovna, Sharifova Ma’mura Bakhodir qizi. Different Approaches to the Classification of Phraseological Units in English Language // Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – Vol. 3, No. 5. – P. 144–147.

9. Normuhammedova Mohinur Khayrillo qizi. Phraseological Units: Structure, Meaning, and Usage in English and Uzbek Languages // American Journal of Philological Sciences. – 2025. – Vol. 5, No. 5. – P. 144–147.

10. Буянова Л. Ю. Фразеология как культурный код познания и духовное наследие предков // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Русский и иностранные языки и методика их преподавания. — 2017. — Т. 15, № 4. — С. 451–464.

11. Ергазина А. А. Фразеомоделирование в свете взаимодействия языка и культуры // Вопросы журналистики, педагогики и языкознания. — 2022. — Т. 41, № 4. — С. 725–732.